YOSHLAR TARBIYASIDA JAHON TAMADDUNINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Abidjonov Abidjon Axmadillayevich
Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani 2 son kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Jahonda hozirgi fan va texnologiya, globalizm toboro rivojlanayotgan bir paytda yoshlar tarbiyasi axborot texnikasining bir qismiga aylanib qolmoqda. Aynan yoshlar tarbiyasiga ta’sir qilayotgan jahonning ilg‘or tamaddunlarini biz tahlil qilishga va o‘z fikr mulohazalarimiz bilan asoslashga harakat qildik.
Kalit so‘zlar: Fan-texnika, sivilizatsiya, manqurtlik, omma, tamaddun, taraqqiyot.
Аннотация:Во времена современной науки и техники в мире развивается глобализм, образование молодежи становится частью информационных технологий. Мы попытались проанализировать передовые цивилизации мира, влияющие на образование молодежи, и обосновать их собственным мнением.
Ключевые слова:Наука и техника, цивилизация, человечество, масса, цивилизация, развитие.
Annotation: In the times of modern science and technology, globalism is developing in the world, the education of young people is becoming part of information technology. We tried to analyze the advanced civilizations of the world that influence the education of young people and substantiate them with our own opinion.
Key words: Science and technology, civilization, humanity, mass, civilization, development.

Hozirgi XXI asrda insoniyat fan-texnik yutuqlar majmuasini qo‘lga kiritishda muvaffaqiyatlarga erishayotganligi bilan o‘ziga xosligini namoyon etmoqda Dunyoning ilg‘or mamlakatlari kundan-kun ilmiy-amaliy kashfyotlarni jadallashtirmoqda. Yirik ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘lgan AQSh, Yaponiya, XXR, Rossiya, Angliya, Germaniya kabi davlatlar eng ilg‘or texnologiyalarni ishga solib iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek yuqorida nomlari keltirilgan rivojlangan davlatlar o‘z mamlakatining Yoshlari tarbiyasida ajdodlaridan qolgan milliy meros va qadriyatlarining o‘rni va ahamiyatini bir lahza ham nazardan qochirmasdan taraqqiyot sari dadil odimlashmoqda.

BMT, JST, NATO, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi keng imkoniyatlarga ega nufuzli boshqaruv tizimlari dunyoning u yoki bu mintaqasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga bevosita yoki bilvosita ishtirok etishmoqda.

Jahon miqyosidagi muammolar sivilizatsiya jarayonida bir tomonlama hal etilish darajasidan allaqachon yuqorilab ketdi. Hech kim, hech bir davlat masalalarga bir tomonlama eskicha qarash asosida yondosha olmaydi. Ilg‘or, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan texnik qurilmalar inson ongi mahsuli sifatida Yer sharini, kosmosni, atrof olamni to‘liq nazorat ostida ushlash imkoniyatlariga erishmoqda albatta bunda yoshlar va ularning intelliktual salohiyati muhim o‘rin tutmoqda. Chunki o‘tgan asrlarda bo‘lib o‘tgan voqeya-hodisalar o‘tmish sifatida tarixdan joy oldi. Yangi fikir, yangi ong kelajak sari yangicha ko‘rinishda dadil qadam qo‘yishning shartidir albatta bunda yoshlarning aqliy salohiyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon xalqlari dunyoda tinch-totuv, barqarorlik, hamjihatlik, yakdillik tamoyillari asosida demokratik jamiyatlar tashkil etib yashashga intiladi.

Umumbashariy an’analarni saqlab qolish, ularni asrab-avaylash, milliy urf-odatlar, ularni yo‘qotmasdan komillik sari rivojlanishini davom ettirish yer yuzida istiqomat qilayotgan yetti milyarddan oshiq kishilarning umumiy istagi.

Yer sayyorasining o‘tmishi ko‘plab bo‘hronlar, urushlar, qon to‘kishlarga guvoh bo‘ldi. Aql-zakovat sohibi bo‘lgan inson oldida bugungi sivilizatsiya davrida hayotni qadrlash

https://wordlyknowledge.uz

ertangi kelajakni saqlab qolish bilan bir vaqtda ajdodlardan qolgan milliy meros va qadriyatlarni asra avaylab kelajak avlodga bus-butun yetkazish vazifasi koʻndalang turibdi.

Yer sharining, bashariyat tamadduning taqdiri insoniyat oʻz oʻtmishidan qanday xulosalar chiqara olayotganiga bogʻliq boʻlib qolmoqda.

Tuzilayotgan rejalar, yaratilayotgan doktrinalar Inson hamda sivilizatsiya manfaatlariga naqadar mos kelishi joriy islohotlarning pirovard natijalari qanday yakunlanishini belgilab beradi.

Insoniyat oʻz tamaddunini asrab avaylab qolishi uchun nimalarga nisbatan qanday munosabatda boʻlmogʻi kerak? – degan masala oʻta muhim va dolzarbdir.

Albatta, sivilizatsiya butun dunyoda roʻy berayotgan, ortga qaytmaydigan jarayon. Boshqa mamlakatlar qatori biz uchun ham zaruriy. Lekin u biryoqlama boʻlmasligi kerak. sivilizatsiya milliy oʻzlikni yoʻqotish degani emas! Dunyo tamadduni turli xalqlarning oʻziga xos anʼanalari, madaniyati, maʼnaviy qadriyatlari bilan goʻzal va boy hisoblanadi. Ularning har biri yashash va ravnaq topishga haqli. Lekin qaysidir davlat yoki davlatlar, qaysidir xalq yoki xalqlar sivilizatsiyani oʻz mentalitetidan kelib chiqib, oʻzgalarga tiqishtirishi kishilik jamiyatiga toʻgʻri kelmaydigan holat hisoblanadi. U holda bu jarayon bir tomondan foyda qilsa, ikkinchi tarafdan jiddiy zarar keltirishi, asriy qadriyatlarga shikast yetkazishi, xalq oʻz ildizidan ayrilgan “omma”ga, millat oʻz qiyofasini yoʻqotgan “manqurt”ga aylanib qolishi ehtimoldan uzoq emas. Bunday xatarga yoʻl qoʻymaslikning chorasi bitta: oʻzgalar qadriyatini kamsitmagan holda oʻz qadriyatlarimizni mahkam turib himoya qilishimiz, lozim boʻlsa, jumla jahonga koʻrsatishimiz kerak. Bunda albatta Yoshlarimiz tarbiyasiga ajdodlarimizdan qolgan muqaddas qadriyatlarimiz va milliy merosimizni singdirishimizning oʻrni va ahamiyati nihoyatda muhim oʻrin tutadi.

Sivilizatsiya jarayonida kishilik jamiyati erishgan sivilizatsiya tarixi, hozirgi kuni, yutuq va kamchiliklari, bosib oʻtilgan tarixiy uzoq koʻp asrlik yoʻldan olingan falsafiy xulosalarga eʼtibor qaratiladi. Shu bilan birga ertangi kunimiz farovonligi yoʻlida nazariy qarashlarning ahamiyatli jihatlariga nazar solinadi. “Odamlar olovga oʻxshaydi, degan edi donishmandlardan biri, issigʻidan bahra ol-u kuydirishidan ehtiyot boʻl”. Taraqqiyot mevalari ham xuddi shunday, undan qoʻrqish emas, faqat toʻgʻri foydalana bilish kerak. Qanday maqsadda qoʻllasangiz, oʻsha tarafga yetaklaydi.

Yurtimizda boshlangan barcha ezgu ishlardan koʻzlangan asosiy maqsad – davlatimiz salohiyatini oshirish, xalqimiz farovonligini taʼminlash, ozod va obod Vatan poydevorini mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan. Yoshlarimizning oʻqib-oʻrganib, zamonaviy ilmlarni egallagan, sogʻlom va maʼnaviy yetuk avlod boʻlib voyaga yetishi yoʻlida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilib, zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Har yili millatimiz yoshlarining kelajak ravnaqini oʻylab hamda yoshlarimizning ehtiyojidan kelib chiqqan holda zamonaviy maktab va kollejlar qurilmoqda, ular eng soʻnggi rusumdagi oʻquv-laboratoriya jihozlari bilan taʼminlanmoqda. Shunday ekan, davlatimiz farzandlarimiz istiqboli uchun muttasil qaygʻurayotgan bir paytda “sivilizatsiya” bahonasi ostida tarbiyani izdan chiqaruvchi, maʼnaviyatini kemiruvchi har qanday yot taʼsirlardan yoshlarimizni himoya qilish, dunyoda kechayotgan axborot tahdidiga qarshi yoshlarimizda sogʻlom immunitetni shakllantirish, ogohlikni bir daqiqa boʻlsin qoʻldan boy bermaslik – bugun suv va havodek muhim zaruratga aylangan.

Sivilizatsiya tushunchasiga aksariyat hollarda insonning jamiyat moddiy, maʼnaviy, xoʻjalik sohalaridagi oʻzgartiruvchilik faoliyati va uning yakunlar sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda sivilizatsiya toʻgʻrisida koʻplab fikirlar mavjud. Abu Nasr Forobiy fikricha “har bir inson tabiatiga koʻra oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun kurashadi. Bunday yetuklikka shahar jamoasi orqali erishiladi”.

https://wordlyknowledge.uz

Amerikalik professor S. Xantington “sivilizatsiya” tushunchasini “rivojlangan” ma’nosida qabul qilishni taklif qiladi. 1997 yilda “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli kitobi chop etilib, unda keyingi urush sivilizatsiyalar o‘rtasida bo‘lishi, o‘z-o‘zini yo‘q qiluvchi urush bo‘lishi takidlanadi.

Aslida sivilizatsiyaning tub mohiyatiga e’tibor bersak u qandaydir utopik qarashlar samarasi emasligi ham, yoki riaksion ruhdagi jangari-fantastik yondoshishlar mahsuli emasligi ham aniq ko‘rinadi.

Yer shari G‘arb va Sharq sivilizatsiyai ta’siri ostida o‘zining bugungi qiyofasiga keldi. O‘rta asrlarda fan-texnika yutuqlaridan harbiy maqsadda foydalangan Yevropalik hukumdorlar jahon davlatlari, mamlakatlari, xalqlari boshiga og‘ir musibatlar solgani tarixda ma’lum. Birinchi, ikkinchi jahon urushlari insoniyat boshiga qancha og‘ir kunlar solganini hamma biladi. sivilizatsiya jarayonida madaniyatlar to‘qnashuvi natijasida urushlar paydo bo‘lishi to‘g‘risida fikrlarga borilganda ham bu fikr qanchalik globallashgan jamiyat vakili fikri ekan degan savol paydo bo‘lishi tabiiy.

Sharq sivilizatsiyaida qadimgi Xitoy tamadduniga asos bo‘lgan Konfutsiy ta’limoti, Daosizm, Neokonfutsiychilik kabilar, Islom ilohiy dini ta’limotidagi insonparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan muqaddas oyatlar yoki hadislardagi sivilizatsiya mujassamligi hayratlanarli.

Sivilizatsiyaning taqdirini o‘zaro urushlar, dunyoga hukumron bo‘lish g‘oyasi, mintaqalarda yakka hokim bo‘lib olib o‘z manfaatlari uchun boshqa kamkuch davlatlarni, xalqlarni talon-taroj qilish usullari emas, balki insoniyat taqdiri haqida qayg‘urib, hayot ne’matini kelajak avlodlarga taqdim etish yo‘lidagi hamjihat intilishlar hal qiladi.

Sivilizatsiya darajasi shu ijtimoiy qurilma ichida muayyan shaxs, insonning kamol topishi uchun qanday imkoniyatlarga ega ekanligi bilan belgilansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XXI asr sivilizatsiyaida inson omili. Alloh taolo o‘z jalolati va qudrati ila insonga yaratuvchilik iqtidorini ato etdi. Odam muloqot quroli sifatida tildan, mehnat qurollari yaratish uchun aql va qo‘llaridan, yaratgan qurollaridan yaxshilik yo‘lida foydalanish uchun ong va tafakkurdan foydalandi.

Yoshlarimiz sivilizatsiya bosqichlaridan pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilar ekan, fikirlarini yangilik, yaxshilik yaratishga qaratadi. Ixtiro etgan narsalari ezgulik maqsadiga ishlatilishini istaydi.

Albatta inson o‘z fitratidagi yaratuvchanlik xislatini tark etmaydi, u o‘z yurtini, shahrini, qishlog‘ini, mahallasini, ko‘chasini, hovlisini, uyini, va hakazo madaniylashtirib, go‘zallashtirib yashashni istaydi. Vatanparvarlik hislarini davom ettiradi. Aynan yuqoridagi ko‘ngil kechinmalari yoshlar qalbida mukammal darajada mavjuddir.

O‘zi yashab turgan mamlakat qonunlariga hurmat ruhida yashash fuqarolarga tinchlik, xotirjamlik, ijodiy kamolot beradi. Inson davlat organlari, ijtimoiy jamiyatga yaxshi munosabatda bo‘lib, o‘z farzandlariga ham istiqomat qilish, farovon turmush qurish sharoitlarini yaratish yo‘lida mehnat qiladi.

Jamiyat a’zolarining bir maqsad sari intilishlari shu jamiyatda barqarorlik, yuksalishini keltiradi. Bunga misol qilib O‘zbekiston yoshlarining intelliktual salohiyatidan kelib chiqib, tinchlik, guzallik, taraqqiyot sari intilishi tufayli ezgu fikr va maqsad atrofida birlashishining provord natijasi sifatida vujudga kelgan “Samarqand yoshlar forumi”ni keltirishimiz mumkin.

Sivilizatsiyalar tarixi o‘rganilar ekan, ko‘p hollarda insonning ma’lum sivilizatsiyaga qo‘shgan hissasi haqida to‘xtalinadi. Qadimgi Rim imperiyasi, antik madaniyat, Vizantiya, Misopotamiya, qadimgi Misr madaniyati, qadimgi Xitoy tamadduni, Yevropa uyg‘onish davri sivilizatsiyasi va hakazolar.

XXI asr fan-texnika taraqqiyoti insonga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Inson bugunga kelib nafaqat sivilizatsiyalarga hissa qo‘shuvchi individ, balki

https://wordlyknowledge.uz

sivilizatsiyalardan o‘z ehtiyojlariga kerakligini olish va uni ijodiy takomillashtirishga tomon qadam tashladi.

O‘z islohotlarida sotsializmga bozor-tadbirkorlik instrumentlarini joriy etgan Xitoy tarixan uncha katta bo‘lmagan davrda dunyodagi ilg‘or mamlakatlar oldingi qatoriga o‘tib oldi, o‘z fuqarolari turmush darajasini bir necha barobarga yaxshiladi. Bunday sivilizatsiyalar namunalarini Singapurda, Malayziyada, Janubiy Koreyada ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizda AQSh, Yaponiya, Yevropa davlatlari tajribalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan besh tamoil prinsiplari olg‘a surilganligi inson va jamiyat munosabatlariga yangicha ruh kiritdi.

Prezidentimizning maqsadi xalqning boy-badavlat bo‘lishi uchun tadbirkorlik, ishlab chiqarish imkonlaridan unumli foydalanish kerakligi haqidagi fikrlari amalda to‘g‘ri ekanini isbotlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston (NMIU), 2017. – 488 b.

2.Qur’oni karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur. – T.: Toshkent islom universiteti, nashriyot-matbaa birlashmasi, 2018. – 624 b.

3.Imom al-Buxoriy. Sahihul Buxoriy. – T.: Hilol-Nashr, 2012.

4.Alimov U. Ilmning fazilati. – T.: Movarounnahr, 2010

5.Uvatov U. Muslim ibn al-Hajjoj. T.: A. Qodiriy nomli “Xalq merosi” nashriyoti, 1995.

6.Ma’rifat – tinchlik asosi. Tuzuvchi Rahimjonov D; Mas’ul muharrir Islomov Z. – T.:

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz